


JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025- yil 1- iyun holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 18 205 tani tashkil etadi, shundan 15 048 tasi yoki 82,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,9 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 93,5 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	18 205	15 133	15 048
2024	19 383	16 186	16 096
2023	20 371	17 254	17 168
2022	24 310	20 979	21 072
2021	22 312	19 089	19 017

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Jizzax shahrida – 26,6 foiz, Sharof Rashidov – 14,0 foiz, G'allaorol – 9,3 foiz va Zomin – 8,9 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Jizzax shahrida – 22,8 foiz va 22,6 foiz, Sharof Rashidov – 12,2 va 12,2 foiz, G'allaorol – 7,8 foiz va 7,7 foiz hamda Zomin – 7,3 foiz va 7,2 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Jizzax shahar	4 841	4 149	4 119
Arnasoy tumani	846	723	721
Baxmal tumani	1 383	1111	1 107
G'allaorol tumani	1 699	1417	1 410
Sharof Rashidov tumani	2 555	2224	2 214
Do'stlik tumani	650	471	468
Zomin tumani	1 613	1322	1 312
Zarbdor tumani	853	697	694
Mirzacho'l tumani	655	501	498
Zafarobod tumani	506	401	397
Paxtakor tumani	895	715	711
Forish tumani	1 245	1036	1 031
Yangiobod tumani	464	366	366

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- iyun holatiga 28,1 foizni (33,8 foiz va 33,9 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 16,5 % (19,6 % va 19,7 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 12,5 % (15,0 % va 14,8 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 009	2 968	2 964
Sanoat	2 269	2 265	2 235
Qurilish	1 161	1 145	1 142
Savdo	5 111	5 111	5 103
Tashish va saqlash	372	368	367
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 226	1 223	1 222
Axborot va aloqa	233	218	218
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	364	252	250
Boshqa turlar	4 460	1 583	1 547

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 15 133 ta faol tijorat korxonalaridan 11 708 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11 708	77,4
Xususiy korxonalar	1 949	12,9
Oilaviy korxonalar	1 242	8,2
Aksiyadorlik jamiyati	14	0,1
Boshqalar	220	1,4

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 225 ta korxonalardan 97 tasi qo'shma korxonalar va 128 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- iyun holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 46 taga oshgan. Bu asosan, axborot va aloqa sohasida 7 tadan 24 taga (o'sish 17 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasidagi korxonalar sonining 17 tadan 25 taga, (o'sish 8 taga) va sanoat sohasida 100 tadan 114 taga (o'sish 14 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	225	97	128
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25	13	12
Sanoat	114	62	52
Qurilish	13	7	6
Savdo	26	9	17
Tashish va saqlash	5	-	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1	3
Axborot va aloqa	24	2	22
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	-
Boshqa turlar	13	2	11

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 71 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 31,6 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkiya (22,7 %), Rossiya Federatsiyasi (17,3 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	225	97	128
Xitoy	71	24	47
Rossiya	39	19	20
Turkiya	51	22	29
Angliya	5	4	1
AQSH	5	3	2
Boshqalar	54	25	29

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
regisrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

J. Djuzbayev
72 221-54-00
(ichki raqam 2560)

Maznil:

130100, Jizzax sh.,
To'qimachilar ko'chasi, 7
